



## XALQARO TERRORIZM XALQARO JINOYAT SIFATIDA

Hojiakbar Mamatqulov Elmurod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil

sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

Telefon: +998930463007

Email: Hojibekk.m@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17645631>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 19-noyabr 2025 yil

### KEYWORDS

xalqaro terrorizm, xalqaro xavfsizlik, xalqaro jinoyat huquqi, BMT, xalqaro jinoiy sud, xalqaro huquqiy mexanizmlar, global xavfsizlik, jinoyatlarning oldini olish.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada xalqaro terrorizmning huquqiy tabiati, uning xalqaro jinoyat sifatidagi o'rnini hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan unga qarshi kurash mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda terrorizm tushunchasining shakllanish tarixi, davlatlararo yondashuvlarning farqliligi, shuningdek, yagona universal-huquqiy ta'rifning mavjud emasligi sababli yuzaga kelayotgan amaliy muammolar yoritilgan. O'quvchiga xalqaro konvensiyalar, BMT Nizomi, Xalqaro jinoiy sudning Rim statuti va boshqa normativ hujjatlar asosida terrorizmga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslarining tahlillari taqdim etiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining mazkur sohadagi yondashuvi va milliy qonunchiligi o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, terrorizmga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, raqamli xavfsizlikni mustahkamlash va yoshlar ongida radikalizmga qarshi immunitet shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi.*

XXI asrda xalqaro terrorizm global xavfsizlikka tahdid solayotgan eng dolzarb transmilliy jinoyatlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlatlarning farovonligi, davlat xavfsizligi va hududiy yaxlitligi, inson huquqlari va xalqaro tinchlikka qarshi yo'naltirilgan ushbu jinoyat turi jahon hamjamiyati uchun kompleks, ko'p qirrali va izchil choralarni talab qiladigan muammoga aylandi. So'nggi yigirma yil davomida sodir etilgan yirik terroristik hujumlar – jumladan, AQSH'da sodir etilgan 2001-yil 11-sentabr voqealari, 2004-yil Rossiya federatisiyasida joylashgan Beslan maktabidagi garovga olish harakatlari, 2019-yil Yangi Zelandiyadagi Christchurch masjidlariga qurolli hujum – terroristik faoliyatning geosiyosiy, diniy-ekstremistik va radikal millatchilik omillari bilan bog'liqligini yaqqol ko'rsatdi. Ushbu harakatlar natijasida minglab insonlar halok bo'lgan, yuz minglab shaxslar tan jarohati olgan yoki psixologik travmaga uchragan, millionlab odamlar esa majburiy migratsiyaga duchor bo'lgan.

Xalqaro terrorizm fenomenini ilmiy jihatdan o'rganishda uning huquqiy tabiati, motivlari, maqsadlari, amalga oshirish shakllari va xalqaro-huquqiy javobgarlik masalalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Terrorizm tushunchasining yagona universal-huquqiy ta'rifining

mavjud emasligi, davlatlarning mazkur masalaga turlicha yondashuvi, shuningdek xalqaro huquqdagi bo'shliqlar terrorizmga qarshi kurash samaradorligini susaytirayotgan omillar sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, mazkur tushunchani diniy e'tiqodlar, xususan, islom dini bilan noto'g'ri bog'lash holati xalqaro maydonda stereotiplar, islamofobiya va siyosiy manipulyatsiyalarga sabab bo'lmoqda.

Mazkur maqolada xalqaro terrorizmning huquqiy tabiati, uning xalqaro jinoyat sifatidagi o'rni, davlatlarning milliy qonunchiligi hamda xalqaro-huquqiy mexanizmlar samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, terrorizmni yuzaga keltiruvchi omillar, unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning roli, O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi yondashuvi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar va g'oyalar muhokama qilinadi.

Terrorizm nima? U huquqda va ayniqsa xalqaro huquqda qanday tavsif qilinadi? Terrorizm tushunchasi, tabiiy ravishda, **“terror”** atamasi bilan uzviy bog'liqdir. Eng umumiy ma'noda ushbu atama aniq anglanmagan, nisbatan noma'lum va ko'p holatlarda oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan tahdiddan kelib chiqadigan haddan tashqari qo'rquv holatini anglatadi. Shu ma'noda, terror nafaqat inson faoliyati natijasida, balki vulqon otilishi yoki zilzila, suv toshqini kabi tabiiy ofatlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin.

Biroq **“terror” atamasi XVIII asrning oxirida, Fransuz inqilobi davrida** yangi mazmun kasb eta boshladi. 1793 yilda chet el bosqini xavfi va ichki beqarorlik sharoitida Konvensiya **“Terror”** siyosatini e'lon qildi hamda ushbu siyosat doirasida Jamoat xavfsizligi qo'mitasi tomonidan, Robespierre vakolati ostida amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator favqulodda choralarni qabul qildi. 1794 yilda Robespierre ag'darildi va keyinchalik qatl etildi. Biroq uni qoralagan Konvensiya o'zi e'lon qilgan **“Terror”** siyosati uchun Robespierre mas'ul ekanini da'vo qila olmas edi. Shu boisdan ular uni **“terrorizm”** da aybladilar. Shunday qilib, mazkur atama ilk bor aynan davlat tomonidan terrorning qo'llanilishiga nisbatan ishlatilgan.

Mazkur atama XIX asrning oxirida yana bir bor yangi ma'no kasb etib, Rossiyada nihilistlar tomonidan, so'ngra Yevropa bo'ylab anarxistlar tomonidan amalga oshirilgan hujumlar **“terroristik”** deb ta'riflana boshladi. Natijada, **“terrorizm”** tushunchasi nafaqat davlat tomonidan qo'llanilgan terrorga, balki davlatga qarshi qo'llanilgan terrorga ham nisbatan qo'llaniladigan bo'ldi.

1920 - yilda esa Trotskiy terrorizmni oqlovchi asar yozib, unda proletariat diktaturasi nomidan qo'llanilgan davlat terrorini asoslab berdi. Biroq 1934 - yilda Yugoslaviya qiroli Aleksandrning suiqasdi natijasida o'ldirilganidan so'ng Millatlar Ligasi ushbu turdagi terroristik harakatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan ikki konvensiya loyihasini ishlab chiqdi, biroq ular kuchga kirmasdan qoldirildi.

XIX asrning ikkinchi yarmi davomida davlat terrori ravnaq topdi. Shu bilan birga davlatga qarshi yo'naltirilgan terrorizm ham sezilarli darajada rivoj topdi. Bugungi kunda esa **“terrorizm”** atamasi, odatda, ana shunday davlat severeniteti, hududiy yaxlitligi va insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi harakat turini ifodalaydi. Bugungi kunda bunday turdagi terrorizmning dunyoda keng tarqalishiga sabab shundaki, u uncha ko'p bo'lmagan insoniy va moliyaviy resurslar bilan sezilarli natijalarga erishish imkonini beruvchi samarali harbiy va raqamli usullarni taqdim etadi. Ya'ni, bugungi kundagi raqamli texnologiya inqilobar terrorizmga inson resurslarini jalb qilmasdan turib, masofadan turib xuddi shunday harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratmoqda. Nitroglitserin yoki simobli portlovchi qurilmalarni masofadan boshqarish imkoni tug'ilmoqda. Bundan tashqari, ommaviy

axborot vositalarining rivojlanishi terroristik e'tiqodda bo'lgan guruhlariga o'z viruslarini samaraliroq yetkazishga imkon bermoqda. Qolaversa, *kriptovalyutalarning insoniyat hayotiga kirib kelib, fiat pullarning o'rnini egallayotganligi hamda ularning blokcheyn texnologiyasi ustiga qurilganligi tufayli (qaysiki, tranzaksiyalar kimlarning o'rtasida sodir bo'layotganligini aniqlashga imkon qoldirmaydigan texnologiyalar) terrorismni moliyalashtirishni osonlashtirmoqda.*

Xalqaro huquqda, "terroristik" sifatdosh atamasi, fikrimizcha, qo'rquv (terror) uyg'otishni maqsad qilgan har qanday jinoyat faoliyatiga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bunday faoliyat inson hayotiga xavf tug'dirishi yoki tan jarohati yetkazishi ehtimoli mavjud bo'lgan zo'ravonlikning qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Demak, ushbu ta'rif doirasida uchta shartning mavjud bo'lishi talab etiladi. **Birinchi**dan, zo'ravonlik, o'limga yoki, eng kamida, og'ir tan jarohatiga olib kelishi mumkin bo'lgan zo'ravonlik harakatlarining sodir etilishi. Biroq, ayrim mamlakatlar ichki qonunchiligi, hamda xususan Yevropa huquqiy manbalari bundan ham kengroq yondashuvni qo'llab, inson hayotiga xavf tug'dirmagan holda mulkni vayron qilishni ham terroristik harakat sifatida baholaydi. Xususan **O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurash" to'g'risidagi qonuni 2-moddasida** terrorismga quyidagicha ta'rif beriladi: - "terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, ***mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi*** hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar"[1]. Ushbu normadan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston ham terrorism tushunchasiga kengroq yondashib, mol-mulkka bo'lgan tajovuzlarni ham terroristik harakatlar turiga qo'shmoqda. **Ikkinchi**dan, tashkillashtirilganlik, bunda jinoyat tasodifan sodir etilmaydi, balki oldindan rejalashtiriladi, tayyorgarlik ko'riladi. Biroq, aqli zaif, ruhiy muvozanatsiz shaxsning tasodifiy otishmasi, havoga o'q uzishi kabilar terrorismga kirmaydi. **Uchinchi**dan, aniq bir maqsadning mavjudligi – aholi, belgilangan guruh yoki keng jamoatchilik orasida qo'rquv tarqatish. Terrorismning maqsadi aslida odam o'ldirish emas, balki jamiyatni qo'rqitish va bu orqali jamiyatga yoxud bir guruh mansabdor shaxslar, jamiyat va davlat arboblari bosim o'tkazish.

Mazkur nuqtai nazardan, terrorchi tushunchasini izohlash uchun 3 ta tushunchani ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Birinchi, **jabrlanuvchi** – bevosita zarar yetkazilgan shaxslar (portlashda o'lganlar, qurolli to'qnashuvda qurbon bo'lgalar). Ikkinchi, **nishon** – terrorchi aslida ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lgan auditoriya (misol uchun, hukumat). Uchinchi, **natija** – terrorning asosiy maqsadi (qo'rquv, siyosiy talablar, hukumatni yon bosishga majbur qilish). Demak, terrorchi odatda bevosita o'ldirayotgan shaxsni emas, jamiyatni qo'rqitishni ko'zlaydi.

Biroq, xalqaro hamjamiyat hanuzgacha terrorismning bunday ta'rifiga oid umumiy kelishuvga erisha olmagan. Xalqaro Sud (International court of Justice) tarkibiga kirgan birinchi ayol sudya, Buyuk Britaniyalik xalqaro huquqshunos **Rozalin Koyen Xiggins** ta'kidlaganidek, - "terrorizm – huquqiy mazmunga ega bo'lmagan atamadir. U shunchaki davlatlar yoki shaxslar

tomonidan amalga oshirilgan, keng miqyosda qoralangan, unda qo'lanilgan usullar noqonuniy bo'lgan, yoki nishonlar himoya ostida bo'lgan, yoki ikkala holat birgalikda kuzatilgan xatti-harakatlarga ishora qilishning qulay usulidir"[2].

Shu jihatdan ta'kidlash joizki, terrorizmga oid umumiy e'tirof etilgan ta'rifning mavjud emasligi sababli davlatlar ushbu turdagi jinoyatlar uchun xalqaro jinoiy sudlarga vakolat berishga muvaffaq bo'lmaganlar. Hatto Rim statuti asosida tashkil etilgan Xalqaro jinoiy sud ham bunday jinoyatlar ustidan yurisdiksiyaga ega emas.

Natijada, terrorizmga qarshi kurash choralari asosan davlatlarning **milliy darajadagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar** zimmasida qolmoqda, ularning samaradorligi esa, asosan, davlatlar o'rtasidagi politsiya va sud hamkorligining sifatiga bog'liq.

Shu ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan va ma'lum turdagi jinoyatlar — masalan, havo kemalarini yoki kemalarni olib qochish, hamda garovga olish kabi jinoyatlar bilan bog'liq konvensiyalar ushbu sohada sezilarli darajada ijobiy natijalar bergan.

Har bir konvensiya o'z qo'llanish doirasiga kiruvchi jinoyat turlarini aniq belgilaydi va a'zo davlatlarga profilaktik choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi. Bundan tashqari, ushbu konvensiyalar bunday jinoyatlarni qat'iy jazolash majburiyatini ham nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan terroristik harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilgan xalqaro jinoyat huquqi normalarini, so'ngra bunday harakatlarda ishtirok etgan davlatlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy normalar keltirilgan huquqiy hujjatlarni ko'rib chiqamiz:

**Xalqaro jinoiy sudning Rim nizomi** — ushbu sudni tashkil etgan xalqaro shartnomadir. Preambula va 13 qismdan iborat bo'lgan ushbu Nizom Sudning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi. 1998-yil 17-iyulda Rim konferensiyasida qabul qilingan mazkur hujjat 2002-yil 1-iyulda kuchga kirgan bo'lib, shu bilan Xalqaro jinoiy sudni rasman tashkil etdi.

Nizom sudning yurisdiksiyasini genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar hamda 2010-yildagi tuzatishdan so'ng — tajovuz jinoyati ustidan belgilaydi. Shuningdek, Nizom yurisdiksiya bilan bir qatorda ishlarning qabul qilinishi (admissibility) va qo'llaniladigan huquq, sudning tarkibi va boshqaruvi, tergov va ayblov jarayonlari, sud muhokamalari, jazolar, apellyatsiya va ishlarni qayta ko'rib chiqish, xalqaro hamkorlik hamda sud-huquqiy yordam, shuningdek, jazolarning ijro etilishi kabi masalalarni ham tartibga soladi [3]. Qolaversa, bir qator maxsus konvensiyalar ham mavjud bo'lib, quyida ulardan ayrimlarini keltiramiz:

- Convention for the Suppression of the Financing of Terrorism (1999).
- Convention on the Suppression of Terrorist Bombings (1997). Tokyo/1970.
- Montreal/1971 konvensiyalari (havo terroriga qarshi).

Yuqoridagi hujjatlar shaxslarning hatti-harakatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lsa, quyida davlatlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi normalarni ko'rib chiqamiz. Ulardan eng asosiysi sifatida **BMT Nizomini** keltirishimiz mumkin. Ikkinchi jahon urushi daxshatlari tugaganidan so'ng, 1945-yil 26-iyun sanasida AQSH'ning San-Fransisko shahrida shunday bir qudratli jumlar yozilgan bir hujjat imzolandi, ushbu jumlarni **biz insoniyat tarixidagi eng qudratli yozuv, yoxud yozuv tarixidagi eng qudratli so'zlar** deb atashimiz mumkin. Ushbu jumlar **BMT ustavining 2-moddasi 4-bandida** aks etgan bo'lib, unda quyidagicha yozilgan: - *"Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha A'zolari o'zlarining xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi*

*kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan, shuningdek, Birlashgan Millatlar Maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan boshqa biron-bir tarzda harakatlardan o'zlarini tiyadilar*" [4]. Biroq shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, Isroil mamlakati bugungi kunda ushbu normaga zid xatti-harakatlarni oshirmoqda.

Ushbu normaning amalda bo'lishini ta'minlash uchun hamda terrorizmni global miqyosda oldini olish mexanizmini kuchaytirish uchun yana bir qator hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, **Davlatlar mas'uliyati (Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts, ARSIWA, 2001)** — agar bir davlat boshqa davlat hududida terrorchilikka yordam bergan bo'lsa yoki terrorchilik faoliyati orqali xalqaro majburiyatni buzgan bo'lsa, ARSIWA asosida xalqaro javobgarlik yuzaga keladi. **Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari (masalan, UNSCR 1373 (2001))** — 11 sentyabr 2001 dan so'ng Xavfsizlik Kengashi qabul qilgan rezolyutsiyalar (1373 va boshqalar) davlatlarga moliyalashtirishni to'xtatish, terrorchilarni izlash, ularni jalb qilmaslik, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi majburiyatlar yuklaydi. Ushbu rezolyutsiyalar davlat harakatlarini tartibga soluvchi kuchli instrumentlardan biri hisoblanadi. Xalqaro terrorizm bugungi kunda nafaqat alohida davlatlarning milliy xavfsizligiga, balki butun insoniyatning tinchligi va barqarorligiga tahdid solayotgan global jinoyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Tarixiy faktlarga qaraganda, bir mamlakatda sodir bo'lgan terroristik harakatlar boshqa biriga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Xususan, AQSH'dagi 9/11 fojiasi sababli butun dunyo krizisga uchradi, aksiya va kripto bozorlari izdan chiqib ketdi. Qolaversa, AQSH "Terrorga qarshi urush" e'lon qildi. Bu esa Afg'onistonga nisbatan harbiy aralashuvlarni keltirib chiqardi. Afg'onistonga chegaradosh mamlakat sifatida O'zR ga ham albatta bunday holatlar o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Terrorizmning xalqaro jinoyat sifatida huquqiy jihatdan aniq belgilab olinmaganligi, bu sohadagi yagona universal konvensiyaning mavjud emasligi xalqaro hamjamiyatning bu yo'nalishda izchillik bilan natijaga erishishiga to'sqinlik qilmoqda. Shunga qaramay, BMT, Xalqaro jinoiy sud, mintaqaviy tashkilotlar va alohida davlatlar tomonidan qabul qilingan ko'plab normativ hujjatlar terrorizmga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslarini bosqichma-bosqich shakllantirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, terrorizmga qarshi kurash samaradorligi eng avvalo davlatlarning samarali hamkorligi, ularning xavfsizlik va raxvedka borasidagi hamkorligiga bog'liq. Shu bois, xalqaro hamjamiyat tomonidan terrorchilikning ildiz omillarini — siyosiy adolatsizlik, iqtisodiy tengsizlik, mafkuraviy ekstremizm va raqamli xavfsizlikdagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar kuchaytirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi ushbu yo'nalishda faol ishtirok etib, "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun hamda xalqaro konvensiyalar doirasidagi majburiyatlari orqali milliy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Kelgusida mamlakatimizning xalqaro hamkorlikdagi o'rni, shuningdek, terrorizmning raqamli shakllari va moliyaviy manbalarini aniqlash borasidagi salohiyatini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini raqamlashtirish, yoshlar ongida radikalizmga qarshi immunitetni shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak.

Xalqaro terrorizm bugungi kunda global xavfsizlikka tahdid soluvchi eng murakkab va xavfli jinoyatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Uning huquqiy tabiati to'liq aniqlanmaganligi, yagona universal ta'rifning mavjud emasligi hamda xalqaro jinoiy sud yurisdiksiyasidan chetda qolayotganligi ushbu jinoyatga qarshi kurash samaradorligini pasaytirmoqda. Shu bilan birga,

terrorizmga qarshi kurashning huquqiy asoslari BMT nizomi, Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari, xalqaro konvensiyalar hamda davlatlarning milliy qonunchiligida bosqichma-bosqich mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi ham bu borada faol ishtirok etib, milliy qonunchiligini xalqaro me'yorlarga muvofiqlashtirish orqali xavfsizlikni ta'minlashga intilmoqda. Kelgusida terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, raqamli xavfsizlikni mustahkamlash, yoshlar ongida ekstremistik g'oyalarga nisbatan barqaror immunitet shakllantirish hamda terrorchilik faoliyatining moliyaviy manbalarini bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi
2. Qonuni — O'RQ-15, 2000-yil, 2-modda.
3. Gilbert Guillaume. Terrorism and International Law. — International & Comparative Law Quarterly, 2004. (Westlaw ma'lumotlar bazasi orqali)
4. Rome Statute of the International Criminal Court (adopted 17 July 1998, entered into force 1 July 2002), 2187 UNTS 90.
5. Charter of the United Nations (adopted 26 June 1945, entered into force 24 October 1945), 1 UNTS XVI, Article 2(4).



INNOVATIVE  
ACADEMY